

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G‘AZALLARINING O‘ZIGA XOSLIGI VA TARJIMA MASALALARI

*Dinora Turebayeva,
O‘zDJTU 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: B. Xolbekova*

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur, buyuk shoir, davlat arbobi va tarixchi sifatida nafaqat o‘z davrining, balki butun Sharq adabiyoti tarixidagi yorqin shaxslardan biridir. Uning g‘azallaridagi o‘ziga xoslik, badiiy mahorat va falsafiy teranlik bugungi kunda ham keng tadqiqotlarga sabab bo‘layotgan mavzulardan biridir. Ushbu maqolada Bobur g‘azallarining o‘ziga xos jihatlari, ularning adabiy-estetik xususiyatlari va g‘azal janriga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi va tarjimalar haqida fikr yuritiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallarida mavzularning keng qamrovi va mazmunning boyligi alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘z ijodida muhabbat, fano, tabiat va inson hayoti kabi mavzularni keng yoritadi. Muhabbat va fano mavzusi g‘azal janrining klassik elementlari sifatida Boburning ijodida alohida o‘rin tutadi. Uning muhabbati ma’naviy va ruhiy kechinmalar bilan boyitilgan, dunyoviy hissiyotlar ilohiy sevgi bilan uyg‘unlashadi.

Bobur g‘azallaridagi til va uslub, Sharq adabiyotining eng yaxshi an‘analariga asoslanib, go‘zal ifodalar, badiiy tasvir vositalariga boyligi bilan ajralib turadi. Bobur g‘azallarida keng qo‘llaniladigan badiiy vositalar – tashbeh, istiora, kinoya va boshqa obrazlilik usullari uning poetik tilini yanada boyitadi. Masalan, uning g‘azallarida tabiat hodisalari bilan inson kechinmalari o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik ifodalari, tashbehtar orqali nozik tasvirlash san‘atini ko‘rish mumkin.

Bobur o‘z g‘azallarida inson hayoti va dunyoqarashi, vaqt va makon muammolari, fanolik va abadiylik tushunchalari haqida chuqur falsafiy mulohazalar bildiradi. Uning g‘azallaridagi falsafiy teranlik inson va tabiat, hayot va o‘lim, baxt va alam o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadi. U g‘azallarida hayotning o‘tkinchiligi va insonning bevafo qismati haqida ko‘p bora ta’kidlaydi.

Boburning g‘azallari musiqiyliigi bilan ham ajralib turadi. Uning she’riyati an’anaviy aruz vaznida yozilgan bo‘lib, g‘azallardagi qofiya tizimi va aruzning to‘g‘ri qo‘llanilishi asarlarning musiqiyliyigini kuchaytiradi. Bobur o‘z g‘azallarida musiqa va ohang yaratishda juda nozik mahoratni namoyish etadi. Shu sababli, ularning o‘qilishi va yodlanishi oson va zavqli bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda Boburning adabiy merosida vatanga bo‘lgan muhabbat alohida o‘rin tutadi. Uning she’rlarida ona yurti Andijonga bo‘lgan sog‘inch, vatanidan uzoqda yashayotgan paytdagi ma’yuslik va qayg‘u, shuningdek, vatanning go‘zalligi va azizligi haqidagi fikrlar yuksak badiiylik bilan tasvirlangan. Bu motivlar, ayniqsa, Hindistonda yozilgan she’rlarida yaqqol aks etadi.

Bobur g‘azallarida baytlar va misralar o‘zaro izchil bog‘langan bo‘lib, she’rning umumiy tuzilmasini tashkil etadi. Tarjima jarayonida bu tuzilmani saqlash muhim ahamiyatga ega, chunki she’rning strukturasi uning badiiy qiymatini belgilovchi

asosiy unsurlardan biridir. E’tiboringizga ulug‘ shoir Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallaridan bir parchani inglizcha tarjimasi bilan havola etamiz:

Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo‘ldi?
Ul lutf ila ehson qani, ey yor, ne bo‘ldi?
Ketdim meni hayron eshigingdan, demading hech
Telbai hayron qani, ey yor, ne bo‘ldi?

Where’s your oath, promise, hey beloved, what happened?
Where’re your caresses and signs of love, what happened?

I left your door, I was surprised but you didn't say
Where that mad man, crazy person, what happened?

Tarjima B. Xolbekovaniki

Bobur g‘azallarining tarjimasi – bu yuqori mahorat va nozik did talab qiluvchi ijodiy jarayon bo‘lib, tarjimon oldida lingvistik, madaniy va estetik muammolar turadi. G‘azallarni tarjima qilishda musiqiylikni saqlash, ma’naviy obrazlarni to‘g‘ri yetkazish va she’rning umumiy tuzilmasini saqlash muhim omillar sanaladi. Shu bilan birga, tarjimon she’rning tarixiy va madaniy kontekstini ham inobatga olishi kerak. Bobur g‘azallarini muvaffaqiyatli tarjima qilish orqali o‘zbek adabiyoti boy merosini kengroq auditoriyaga yetkazish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Bobur.Yoz fasli yor fasli. Gafur Gulom nashriyoti.Toshkent 2016.
2. A.Хожиаҳмедов. Мумтоз Бадиият Луғати. Т. 2020.
3. Б. Холбекова. Мафтункор шеърят. Филология масалалари 2024.